

**UMUMIY O‘RTA TA’LIMNING RUSIYZABON BOSHLANG‘ICH
SINFLARIDA BOLALAR ADABIYOTINING O‘QITILISH MASALALARI**

Mixrayeva Zumrad Kutuzovna

*Toshkent shahar Bekttemir
tumanidagi 290 – matabning 2-toifa
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada umumiy o‘rta ta’limning boshlang‘ich rusiyabon sinflarida bolalar adabiyyotining o‘qitilishidagi o‘ziga xos jihatlari borasidagi fikr va mulohazalar o‘rin olgan bo‘lib, shuningdek, darslikdagi matnlar tahlili haqida ham so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: badiiy matn, PISA PIRLS, TIMS, sujet, personaj, leksik lisoniy, poetik, epic, lirik, janr, Renessans, global, nasriy, intellekt.

Abstract. This article is about the opinions and comments about the specific aspects of the teaching of children’s literature in the elementary Russian-speaking classes of general secondary education.

Key words: artistic text, PISA, PIRLS, TIMS, plot, character, lexical, linguistic, poetic, epic, lyrical, genre, renaissance, global, prose, intellect.

Аннотация. В данной статье представлены мнения и комментарии по поводу особенностей преподавания детской литературы в начальных русскоязычных классах общего среднего образования.

Ключевые слова: художественный текст, PISA, PIRLS, TIMS, сюжет, характер, лексический, лингвистический, поэтический, эпический, лирический, жанр, Ренессансный, глобальный, проза, интеллект.

Ma’lumki, bizning ota-bobolarimiz farzandlari nutqini o’stirishga juda katta ahamiyat berishgan. Bolalar yoshligidanoq ularga har xil so‘zni to‘g’ri talaffuzi uchun tez aytishlar o‘rgatishgan.

Buyuk alloma Kaykovus shunday deydi: “Ey farzand, so‘zining yuzin va orqasin bilgil, ularga rioya qilgil, har ne so‘z desang, yuzi bila degil, to suxang‘oy bo‘lgaysan. Agar so ‘z aytib, so‘zning nechuk ekanin bilmasang, qushga o‘xsharsenkim, unga to ‘ti derlar, ul doim so‘zlar, ammo so‘zining ma’nosin bilmas”. [Kaykovus. Qobusnomi. T. 2006. B-208]

Darhaqiqat, ta’limda bolaning tafakkur qilish faoliyatini kengaytirish, og‘zaki va yozma holda erkin fikrlay olishi, o‘zgalar bilan muloqot davomida o‘zgalar fikrini anglay olishi, jamiyat a’zolari bilan shaxs sifatida shakllanib, erkin muloqotda bo‘lish ko‘nikma va malakasiga jiddiy e’tibor qaratiladi.

Barcha fanlarni to‘g’ri anglash, tushunish uchun, o‘z- o‘zidan, o‘z ona tillari yoki o‘zlarini istalgan bir tilni puxta egallamoqlari zarur.

Xalqaro miqyosdagi PISA va TIMS, PIRLS testlarini to‘g’ri idrok eta olgandagina o‘quvchi aniq va tabiiy fanlarga oid topshiriqlarni yoki mantiqiy masalalarni yecha oladi.

Badiiy matn bilan ishlash orqali esa bu jarayon yanada takomillashib boradi.

Aytaylik, bir hikoya janri orqali ham, undagi sujetni o‘qish , personajlar nutqini tahlil qilish bilan ham o‘quvchilarning nutq boyligi, ya’ni leksik boylik rivojlanib boradi.

“Ma’rifatli xalq shijoatli bo‘lur. Shijoat qalbning matonatidan, ruhning salohiyatligidan iboratdir. Maorifdan, ilm-fan va madaniyatdan mahrum bo‘lgan xalq jaholat panjalarining orasida xamir kabi ezilgandek, fe’l-atvori zamirida ham o‘z nafsining yoqasini bo‘shata olmas,” [Tarbiya. 10-sinf uchun darslik. N.Ismatova va boshqalar. T. 2021. B-76]– deydi buyuk alloma Abdulla Avloniy.

Umumiy o‘rta ta’limning boshlang‘ich rusiyabon sinflarida dars berar ekanman, o‘z tajribamda umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun nashr etilayotgan Букварь (Alifbo) darsliklarida ham nafaqat o‘zbek bolalar adabiyoti, balki jahon bolalar adabiyotidan ham bir qancha lirik va epik asarlarning berilishi o‘quvchilarning dunyoqarashlarini o‘sirishda muhim rol o‘ynashiga amin bo‘lamon.

Binobarin, mazkur darslikda rus shoirasi Yuliya Smolevaning “Я первоклассник!” (“Men 1-sinf o‘quvchisiman”), Mark Shvarsning “Моя семья” (“Mening oilam”), L. Kabalyakaning “Зоопарк” (“Hayvonot bog ‘I”), shuningdek, nemis bolalar adabiyotidan Genrix Sapgirning “Шутка” (“Hazil”) [Букварь. 1-sinflar uchun darslik.] kabi bir-biridan qiziqarli she’rlari o‘rin olgan bo‘lib, bu she’rlar orqali o‘quvchilar turli millat vakillarining o‘ziga xos tomonlarini ham kashf etadilar.

Ma’lumki, 7-8 yoshlarda o‘quvchilarda, ayniqsa, xotiraning ancha tez shakllanishi kuzatiladi. Bu jarayonda o‘quvchilar har qanday matn bilan, ya’ni ham nasriy, ham she’riy matn bilan bemalol ishlay oladilar. Mazkur badiiy asarlar noetik jihatdan qanchalik oson o‘qilmasin, ularning ma’nolari va talaffuzlarida, albatta, o‘qituvchining ko‘magi kerak bo‘ladi.

She’rlarning g‘oyaviy tahlillarida ham o‘qituvchi, o‘z-o‘zidan, yetakchi bo‘lishi kerak.

Bolalar adabiyotini o‘rganish aslida maktabgacha ta’lim muassasalaridan boshlansa-da, boshlang‘ich sinflarda bu jarayon takomillashib boradi.

Bolalar adabiyotini o‘rganish, she’rlar yodlash, hikoyalarni tahlil qilish, personajlar holatini tahlil qilish, ayniqsa, lug‘atlar bilan ishlash o‘quvchilar dunyoqarashida, ularning lisoniy jihatdan nutqi takomillashishida ahamiyatli hisoblanadi.

Shu bois adabiyotni, binobarin, bolalar adabiyotini o‘rganish ham uzlusizlik kasb etadi.

O‘quvchi har qanday badiiy asardan hayratlanishi uchun she’rlardagi ular kutmagan topilmalar va ma’nolarni ko‘rsatib berish – har bir mahoratli ustozning, ya’ni o‘qituvchining vazifasi.

Buyuk iste’dod egasi, jadid adabiyotining zabardast vakillaridan biri Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon “ Adabiyot nadur?” nomli maqolasida shunday deydi:

“Adabiyot yashasa, millat yashar: adabiyoti gullamagan va adabiyotining taraqqiysiga cholishmagan va adiblar yetishtirmagan millat oxiri bir kun hissiyotidan, o‘ydan fikran mahrum qolib, sekin-sekin inqiroz bo‘lur. Buni inkor etib bo‘lmas”. [M.Xasanov va S.Ahmedov. 1998. B-135]

Zotan, muhtaram yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev Uchinchi Renessansning ham yaratuvchilari mana shu yoshlar bo‘lishini to‘la ishonch bilan aytdilar.

Bu yurt, bu millat ildizlari dunyo tamaddunini yaratgan bobolar zakovati bilan sug‘orilganini yaxshi bilamiz.

Shu boiz, albatta, o‘sha ajdodlarning qaynoq qoni bugun ham yoshlarimiz tomirida oqmoqda. O‘z salohiyati bilan XXI asrning intellektual yoshlari ham bundan-da yuqori cho‘qqilarni zabit etishiga ishonchimiz komil.

Foydalaniman adabiyotlar ro‘yxati:

1. Kaykovus. Qobusnom. T. 2006. B-208
2. Tarbiya. 10-sinf uchun darslik. N.Ismatova va boshqalar. T. 2021. B-76
3. Букварь. 1-sinflar uchun darslik
4. M.Xasanov va S.Ahmedov. 1998. B-135